

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

OCHILOVA DILAFRUZ BAXRAMOVNA

JON DRAYDENNING “AVRANGZEB” FOJIASI LINGVOPOETIKASI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Ochilova Dilafruz Baxramovna

Jon Draydenning "Avrangzeb" fojiasi lingvopoetikasi 3

Ochilova Dilafruz Baxramovna

Linguoetics of John Dryden's tragedy "Aureng-Zebe" 23

Очилова Дилафруз Бахрамовна

Лингвопэтика трагедии Джона Драйдена "Аврангзеб" 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

OCHILOVA DILAFRUZ BAXRAMOVNA

JON DRAYDENNING “AVRANGZEB” FOJIASI LINGVOPOETIKASI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.3.PhD/Fil1157 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xajiyeva Feruza Melsovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Jo'raeva Malohat Muhammadovna
filologiya fanlari doktori, professor

Saidova Muxayyo Umediloyevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «09» sentabr soat 09⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 352 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «09» avgust kuni tarqatildi.
(2023-yil «09» avgust da № 23-25 raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.M. Jo'rayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida XVII asr klassitsizm oqimining adabiy-estetik xususiyatlarini zamonaviy talqinda qayta ko'rib chiqish masalalariga e'tibor kuchaymoqda. Mazkur davrda Yevropa va Osiyo adabiyotida poetik tafakkur miqyoslari, badiiy tahlilni amalga oshirishdagi bir qator mezonlar o'zgarib, olamni badiiy idrok etish va tasvirlashning kognitiv, lingvomadaniy, intertekstual tamoyillari maydonga kelishi asarni antroposentrik, lingvostilistik, pragmatik-diskursiv tahlil qilish metodlarini taqozo qila boshladi. Shu ma'noda Uyg'onish davri mumtoz adabiyot tabiatining intertekstual mohiyatini ilmiy baholash, badiiy tasvir vositalarini struktur o'rganish asarlarni zamonaviy umumadabiy kontekstda tahlil qilish imkonini beradi.

Dunyo adabiyotshunosligida Uyg'onish davri ingliz adabiyotining ilmiy-nazariy muammolari, uning antik davr yunon-rim adabiyoti zamirida taraqqiy etishi, asarlar syujeti va kompozitsiyasida uch birlik (harakat, vaqt va makon birligi) qoidasiga amal qilinishi, badiiy asarni real voqelikka taqlid qilish, ya'ni mimesis nazariyasi asnosida yaratilishi kabi qat'iy adabiy qonuniyatlarga rioya qilinishi keng ko'lamli tadqiqotlarda o'z yechimini topgan. Ingliz adabiyotining taniqli namoyandasi Jon Drayden asarlaridagi metaforiklik, ramziylik, intertekstuallikni dekodlash, badiiy tilidagi ritorik vositalarni aniqlash, ulardagi kontekstual implikasiyani yoritish va ijodkorga xos idiosstil va idiolektni belgilash adib mahoratini tekshirishning o'ziga xos mezonlari sifatida Sharq va G'arb an'analari hamda qarashlari uyg'unligini, turli madaniy kodlarni matnga singdirish texnikasini ilmiy baholashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizdagi intensiv islohotlar davrida jamiyat ma'naviyati va barkamolligining negizi sanalgan adabiyotga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda va jahon adabiyoti namunalarini milliy kontekstda chuqur anglash, ularning mohiyatini zamonaviy dunyoqarash orqali talqin etib, ma'naviyatimizni yuksaltirish dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi kunda "Innovatsion rivojlantirish strategiyalari dunyo ilm-fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalar asosida inson kapitalini, mamlakatni jadal rivojlantirish, innovatsion faoliyat sohasida yagona davlat siyosatini olib borish maqsadida ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi"¹ zamonaviy adabiyotshunoslik fani oldiga jahon standartlariga mos tadqiqotlarni amalga oshirish kabi ustuvor vazifalarni qo'yadi. Zero, tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan biografik asarlarni tahlil qilish, ularning o'ziga xos janriy xususiyatlarini, poetikasini, asarlarning ommalashishiga sabab bo'lgan omillarni tadqiq etish millat tarixini chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-avgustdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi

¹ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-son Qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-4910391>.

farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida XVII asr Yevropa va ingliz Uyg‘onish davri adabiyoti hamda klassitsizm adabiy oqimining vujudga kelish omillari, estetikasi, poetikasining asoslariga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar mavjud². Bu ishlarda o‘rta asr davri yozuvchilari, ularning o‘ziga xos uslubi, asarlarida tarannum etilgan sadoqat, muhabbat, vatanparvarlik, gumanizm kabi g‘oyalar yoritib berilgan.

Rus adabiyotshunosligida M.N.Morozova, I.V.Ostrovskiy, O.A.Tarasyuk kabi olimlar³ Jon Dryden hayoti va ijodi, ijodkorning komediya janriga mansub asarlari xususiyatlari, qahramonlik pyesalarini tahlilga tortganlar.

Tadqiqot predmeti sifatida tanlangan lingvopoetika masalasi qadimdan o‘rganilib kelinayotgan bo‘lsa-da, bugungi kunda muammoga oid yangicha nazariy qarashlar qator olimlar⁴ning ilmiy ishlarida kuzatiladi. Mazkur ishlarda badiiy asar

² Winn, Anderson J. John Dryden and His World. New Haven: Yale University Press, 1987. – 512 p. Taylor C. Dryden’s Aeneid. Delaware: Associated University Presses, 1991. – 150 p.; Carter R., John M. The Penguin Guide to Literature in English. – Harlow: Penguin English, 2001. – 263 p.; Gower, Roger. Past into Present. – Harlow: Longman, 2002. – 470 p.; Thornley G.C. and Roberts G., An Outline of English Literature. – Harlow: Longman, 2003. – 216 p.; Denis Delaney, Ciaran Ward, Carla Pho Fiorina. Fields of Vision. Volume I. – Harlow, 2003. – 480 p.; Cresswell J., The Cat’s Pyjamas: The Penguin Book of Clichés. Penguin Books, 2007. – 416 p.

³ Аникин Г.В., Михалская Н.П. История английской литературы. – Москва: «Высшая школа» 1975. – 528 с.; Морозова М. Н. Героические пьесы Джона Драйдена. Дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2002. – 202 с.; Островский И.В. Драматургия Джона Драйдена 1670-х гг.: от героической драмы к трагедии: “Ауренг-Зеб”, “Все за любовь”. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2005. – 24 с.; Тарасюк О.А. Жанр комедии в критике и драматургии Джона Драйдена. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2009. – 19 с.

⁴ Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка. – Ленинград, 1960. – 174 с.; Sosnovskaya V.B. Analytical Reading. – Moscow: Higher School, 1974. – 180 p.; Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977. – 333 p.; Keir Elam. The Semiotics of Theatre and Drama. London and New York: Routledge, 1980. – 163 p.; Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования). – Ленинград: Просвещение, 1981. – 384 с.; Shlomith Rimmon-Kenan. Narrative Fiction. Contemporary Poetics. London and New York: Routledge, 1983. – 177 p.; Kukhareno V.A. Seminars in Style. – Moscow: Higher school, 1971. – 183 p.; Jakobson Roman. Linguistics and Poetics. // Language in Literature. Harvard University Press, 1987. – 548 p.; Якобсон Р. Работы по поэтике. – Москва: Прогресс, 1987. – 478 с.; Barilli, Renato. Rhetoric. (Translation by Giuliana Menozzi) – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1989. – 184 p.; Aznaurova E.S. Interpretation of

tilining obrazli va ta'sirchanligini ta'minlovchi tilning maxsus leksik resurslari, uslub, stilistik vositalar, intertekstuallikni hosil qiladigan uslubiy vositalar zamonaviy metodlar asosida muhokama qilingan.

O'zbek adabiyotshunosligida ingliz klassitsizmi Jon Drayden hayoti hamda ijodiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar⁵ amalga oshirilgan. Biroq yozuvchining "Avrangzeb" tragediyasi lingvopoetikasini o'rganishga bag'ishlangan yirik monografik tadqiqot mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining "Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Jon Draydenning "Avrangzeb" dramasi lingvopoetik o'ziga xosligini, ekspressiv va ekstralingvistik vositalarning xususiyatlarini poetik sintaksisning funksional-semantik aspektida aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

klassitsizm davri dramaturglarining uch birlik – harakat, vaqt va makon birliklari asosida asar yaratish prinsiplarini, XVII asr Angliya adabiyoti vakillari uslubida Antik davr an'analari va Uyg'onish davri adabiyotiga xos bo'lgan xususiyatlar mushtarakligini tahlil qilish;

Jon Drayden badiiy mahoratini tekshirish asnosida "Avrangzeb" dramasi syujeti, kompozitsiyasi va motivlarini tarixiy va badiiy haqiqat negizida izohlash;

"Avrangzeb" dramasi uslubiy vositalarni stilistik konvergentsiyalar majmuasida tahlil qilish hamda stilistik konvergentsiyalarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash;

"Avrangzeb" dramasi ramzlar va allyuziyalarning intertekstual vazifasini talqin qilish va ingliz klassitsizm dramasi intertekstuallikning sharqona motivlarda ifodalanishini asoslashdan iborat.

Literary Text. – Tashkent, 1990. – 180 p.; Бобохонова Л.Т. Инглиз тили стилистикаси. – Тошкент, 1995. – 143 б.; The Oxford Companion To English Literature. Sixth Edition. Edited By Margaret Drabble. – Oxford University Press, 2000. – 1188 p.; Handbook of Classical Rhetoric in the Hellenistic Period (330 b.c.-a.d. 400) edited by Stanley E. Porter. – Boston, Leiden: Brill Academic Publishers, Inc., 2001. – 919 p.; Peter Childs, Roger Fowler. The Routledge Dictionary of Literary Terms. London and New York: Routledge, 2006. – 272 p.; Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий. под ред. Н.Д. Тамарченко. – Москва: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008. – 359 с.; The Routledge Handbook of Stylistics. Edited by Michael Burke. – London and New York: Routledge Taylor Francis Group, 2014. – 558 p.; Khajieva F.M. Theoretical Aspects of the Language Learned (Stylistics). – Bukhara, 2021. – 203 p.

⁵Бакоева М., Муратова Э., Очилова Э. English Literature. – Tashkent, 2006. – 209 p.; Жўракулов У. Шарқ ва Фарб классицизмнинг умумназарий муаммолари. Қиёсий адабиётшунослик: ўтмиши, бугуни, истикболлари: Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами – Тошкент: Фирдавс-Шон, 2020. – 105 б. Холбеков М.Н. Инглиз адабиёти классиклари. Био-библиографик қўлланма – Жиззах, 2014. – Б.17-18; Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 339; Эрматов Б.С. Амир Темур Фарбий Европа адиблари нигоҳида. – Тошкент: 2017 – Б. 104, 146.; www.ziyouz.uz. (2019). Жўракулов У. Михаил Бахтин кашфиётлари // www.ziyouz.uz. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/uzoq-juraqulov-mihail-bahutin-kashfiyotlari>. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. –Тошкент, Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 17-23.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz dramaturgi Jon Draydenning “Avrangzeb” tragediyasi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Jon Draydenning “Avrangzeb” dramasi lingvopoetikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, biografik, kontekstual, antropotsentrik, psixoanalitik, kognitiv-diskursiv, stilistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yevropada klassitsizm davri dramaturglari ijodining spetsifik xususiyatlari antik va Uygʻonish davri adabiyotining badiiy-estetik anʼanalariga xos boʻlgan mimetik yondashuv asosida namoyon boʻlishi hamda ushbu davr dramalarida uch birlik qonuniyati – harakat, vaqt va makon birliklari kabi yetakchi omillar ustivorligi asoslangan;

Jon Draydenning qahramon yaratish mahorati, badiiy konsepsiyasi, gʻoyaviy-axloqiy mohiyati, muallif estetik strategiyasi, tafakkuri, adib asarlarining badiiy estetikasi “Avrangzeb” dramasidagi syujet va kompozitsiya, mavzu va gʻoya, kolliziyaning fojiaiy tabiati mutanosibli orqali namoyon boʻlganligi aniqlangan;

“Avrangzeb” dramasidagi stilistik konvergensiya majmuasi tahlili orqali Drayden uslubiga xos metaforik maʼnoni asoslash, asarda stilistik konvergensiyaning lingvopragmatik xususiyatlarini yoritib berish, vaziyatning shartlilik va metaforik mohiyati kabi badiiy usullarning mazmunga asoslanishi isbotlangan;

“Avrangzeb” dramasi poetikasiga xos boʻlgan asosiy badiiy-ifodali vositalar, ramzlar va allyuziyalarning intertekstual vazifasi, transformatsiyasi, funksionalligi, individual yondashuv tamoyillari asosida ingliz klassitsizm dramasida intertekstuallikning sharqona motivlari ekstratekstuallik va intratekstuallik orqali ifodalanishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotda antropotsentrik, stilistik, adabiy tahlil metodlari samarali qoʻllanilib, Jon Draydenning “Avrangzeb” fojiasida metafora, metonimiya, kinoya, ramz, allyuziya yordamida ifodalangan koʻchma maʼno va stilistik boʻyoqdorlik; intertekstuallik vositasida sharqona motivlarni ifodalashning ahamiyati teran mushohada qilingan va ularga xos belgilarni aniqlash boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

asarda tarixiy voqealarning haqiqatga sodiqlik mezoni asosida tasvirlanishi, syujet va obrazlarning puxta ishlanishi, konfliktning keskin va shiddatli, yaʼni kontsentrik boʻlishi, badiiy shartlilik unsurlarining mohirona qoʻllanilishi drama poetikasi nuqtai nazardan asoslangan;

personajlar harakati va nutqi tasviri dramatik asarlarda ustivorlik kasb etgani bois syujetlilik va nutqiy rang-baranglik kabi uslubiy asoslarning muhimligi, dramatik shartlilik muammolari, dramatik asarning ichki qurilishi bilan bogʻliq umumiy va xususiy qonuniyatlar, lingvopoetik vositalarning badiiy matndagi vazifasi ilmiy-nazariy jihatdan tavsiflangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot mavzusi boʻyicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, muammoning aniq qoʻyilishi, ish yuzasidan

chiqarilgan xulosalar tadqiqotchi tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlarda o'z ifodasini topganligi hamda bu xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanganligi, Jon Draydenning "Avrangzeb" tragediyasi xususiyatiga oid qo'yilgan muammo tavsifiy, biografik, kontekstual, antropotsentrik, psixoanalitik, kognitiv-diskursiv, stilistik tahlil metodlari asosida aniqlangani, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dramaturgiya sohasida mavjud muammolarni tadqiq qilish, Angliya adibi Jon Drayden asarlari lingvopoetikasi haqidagi tasavvurlarni mukammallashtirish, Uyg'onish davri adabiyotida dramatik asarlar verbal sathida stilistik konvergensiya yordamida sharqona motivlar bilan boyitilganligini, allyuziyalar yordamida G'arb va Sharq adabiyoti va madaniyatidagi ramziy ma'no kasb etuvchi badiiy vositalarni tadqiq etishda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ingliz Uyg'onish davri adabiyoti lingvopoetikasi va uning xususiyatlarini aniqlashda muhim manba vazifasini bajara olishi, uning xulosalaridan "Angliya adabiyoti", "Adabiy oqimlar evolyutsiyasi", "Adabiyot nazariyasi", "Stilistika", "Matn tahlili" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirishda, fakultativ darslar va maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jon Draydenning badiiy mahorati, "Avrangzeb" tragediyasi lingvopoetikasining tadqiqi jarayonida olingan ilmiy natija va xulosalar asosida:

Yevropada klassitsizm davri dramaturglari ijodining spetsifik xususiyatlari antik va Uyg'onish davri adabiyotining badiiy-estetik tajribalariga asoslanib, qadimgi yunon-rim adiblari ijodiga xos bo'lgan uslubga mimetik yondashuvning mavjudligi hamda dramalarda uch birlik qonuniyati – harakat, vaqt va makon birliklari yetakchi omillar ustivorligiga doir nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 1-dekabrda №17.01/223-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha drama matnining lingvopoetik va lingvopragmatik tadqiqi borasidagi yangi ilmiy-nazariy manba va ma'lumotlar bilan boyigan;

Jon Draydenning qahramon yaratish mahorati, badiiy konsepsiyasi, g'oyaviy-axloqiy mohiyati, muallif estetik strategiyasi, tafakkuri, adib asarlarining badiiy estetikasi ilmiy-nazariy jihatdan izohlanib, "Avrangzeb" dramasi syujet va kompozitsiyasi, mavzu va g'oyasi kolliziyaning fojaviy tabiati lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari orqali namoyon bo'lganligi bilan bog'liq xulosalardan Qarshi davlat universitetida Yevropa Ittifoqining "Erasmus+

Teaching Mobility Project KA-107 Mobility of Individuals between Programme and Partner Countries” mavzusidagi dastur doirasida amalga oshirilgan innovatsion loyihada foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2023-yil 17-fevraldagi №04/578-son ma’lumotnomasi). Natijada Jon Drayden tragediyasida qo‘llanilgan metafora, metonimiya, epitet, ironiya, sarkazm, o‘xshatish, stilistik takror, parallel konstruksiya, inversiya kabi stilistik vositalarning kontekstual va implitsit ma’nolarini dekodlovchi ma’lumotlar xususidagi mulohazalar loyiha mundarijasini kengaytirib, mazmunini mukammallashtirgan;

“Avrangzeb” dramasi uslubiy vositalarni stilistik konvergensiya majmuasi tahlili Drayden uslubiga xos metaforik ma’noni asoslash, asarda stilistik konvergensiyaning lingvopragmatik xususiyatlarini yoritib berish, vaziyatning shartlilik va metaforik mohiyati kabi badiiy usullarning mazmunga mutanosibligida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq xulosalardan Qarshi davlat universitetida AQSh elchixonasi bilan hamkorlikda SUZ-800-21-GR-3181 raqamli “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2022-yil 16-dekabrda №04/5128-son ma’lumotnomasi). Natijada “Angliya adabiyoti”, “Adabiyotshunoslik”, “Matn tahlili”, “Stilistika” fanlari asoslarini modernizatsiya qilingan, ta’lim tizimi jarayoni mustahkamlangan, fanlarning amaliy qismlari takomillashtirilgan, ilmiy tadqiqot ishi xalqarolashtirilib hamkor universitetlar bilan fanlararo integratsiya almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan;

“Avrangzeb” dramasi poetikasiga xos bo‘lgan asosiy badiiy-ifodali vositalar, ramzlar va allyuziyalarning intertekstual vazifasi, transformatsiyasi, funktsionalligi, individual yondashuv tamoyillari ingliz klassitsizm dramasi intertekstuallikning sharqona motivlari ekstratekstuallik va intratekstuallik negizida ifodalanishi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Qashqadaryo viloyati “Oltin voha” radiokanalining “Ayol – millat kelajagi” nomli eshitirishi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 19-dekabrda №17-05/333-son ma’lumotnomasi). Natijada radiotinglovchilarining O‘rta asr Angliya adabiyotida klassitsizm tendensiyalari, Jon Draydenning uslubi va “Avrangzeb” tragediyasining badiiy-g‘oyaviy mazmuni to‘g‘risidagi bilimlarini va ularning kitobxonlikka qiziqishini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta, jumladan, 1 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta tarjima-monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan, 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot davomida olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan. Mavzuning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Jon Draydenning Tiklanish davri klassitsizmi dramaturgiyasiga qo‘shgan hissasi”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. *“Yevropa adabiyotida klassitsizm oqimi taraqqiyoti”* nomli birinchi faslda Yevropa yozuvchilarining klassitsizm badiiy yo‘nalishiga qo‘shgan hissasi, Drayden ijodida dramaturgiyaning tutgan o‘rni, Jon Draydenning Angliya adabiy merosini o‘z asarlari bilan boyitganligi hamda *“Avrangzeb”* dramasiidagi falsafiy-estetik qarashlar talqini, g‘oyaviy konsepsiyasi, klassitsizm dramaturgiyasining nazariy xususiyatlari tadqiq qilingan.

Klassitsizmning mohiyati qator ilmiy tadqiqotlarda yoritib berilgan bo‘lib, uning genezisi O‘rta asrlarga borib taqaladi. Adabiyotshunos D.Quronov klassitsizmni *“XVII asrdan XIX asr boshlariga qadar Yevropa san’atida kuzatilgan estetik hodisa, shu davr adabiy jarayonida yetakchi mavqe tutgan adabiy yo‘nalish”*⁶ sifatida e’tirof etadi. Ikki asrdan ortiq davr mobaynida bu oqim G‘arb adabiyotida dominantlik qilgan bo‘lib, mashhur namoyandalarni dunyoga keltirib, adabiyotni qonun-qoidalar asosida ijodiy mimesis va qonuniyatlarga mutlaq bo‘ysunish asosida shakllantirib borgan. Shu sabab bu oqim an’analar davomchisi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ayrim adiblar klassitsizm qonuniyatlari chegarasini buzib, individual uslubni ham yaratishga, mumtoz adabiy an’analar va uslubiy o‘ziga xoslikni uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘lishgan.

Drayden ijodi falsafiy-didaktik xarakterga ega bo‘lib, uning barcha asarlari negizida o‘sha davr siyosati, maishiy va tarixiy hikoyalar uyg‘unligi mujassamlashgan. Draydenning dramalari mazmunan salmoqdor, shaklan siqiq bo‘lib qolmay, nihoyatda boy lug‘atga egaligi, voqealar tasvirining rang-barangligi, ma’naviy ahamiyatga egaligi bilan jahon adabiyotida alohida fenomen sifatida e’tirof etiladi.

“Yevropa adabiyotida Sharq motivi va “Avrangzeb” dramasi” nomli ikkinchi faslda XVII-XVIII asrlarda Angliya ziyolilarining Sharqning sirli olami, adabiyoti, ilm-fan va madaniyatini o‘rganishgani hamda sharqona mavzularda yaratgan asarlari haqida fikr yuritiladi. Jumladan, Sharqning mashhur tarixiy kitoblarini tarjima qilinishi, taniqli ingliz adiblari bu mavzuda asarlar yozganliklari, Yelizavetta davri dramaturglarining shov-shuvga sabab bo‘lgan pyesalari aynan

⁶ Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 136.

Sharq mavzusida bo‘lganligi fikrimiz isbotidir. Bu an‘ana ancha davom etib, 1648-yil Angliyada teatrlar faoliyatiga cheklovlar qo‘yilishiga qadar davom etgan.

XVII asrga kelib Sharq haqidagi taassurotlar ancha ijobiy tomonga o‘zgargan edi. Bir qancha ingliz olimlari, jumladan, T.Bayoli, G.Maklin, V.Pinto de Sola, E.Sayid, E.Xeyvud va boshqalarning tadqiqotlariga yuzlansak, ular “*Sharqda ilgari ketayotgan ilm-fan, madaniyat yevropaliklarni har tomonlama qiziqtirgan va shu sababli Sharq mavzusi dramaturglarning asosiy yetakchi mavzusiga (dramaturgiya san’atining asosiy shakliga) aylangan*”, – deb ta’kidlashgan. Olimlar va adabiy tanqidchilar XVI-XVII asr oralig‘ini shakshubhasiz Sharq hayoti, madaniyati, tarixini o‘rganishda qaratilgan *oltin davr* deb atashgan.

Fransua Berne (François Bernier, 1620-1688)ning “Buyuk Mo‘g‘ullar imperiyasidagi oxirgi davlat to‘ntarishi” (“*The History of the Late Revolution of the Empire of the Great Mogol*”, 1671), “Mug‘ullar saltanatiga sayohat” (“*Travels in the Mogul Empire*”, 1656–1668), “Fransua Bernyening Buyuk Mo‘g‘ullar davlati, Hindiston, Kashmir qirolligi va boshqalarning ta’rif-tavsifini o‘zida jamlagan sayohatnomasi” (1699) kitoblari Evropaliklarda katta qiziqish o‘yg‘otgan. Hindistonda o‘n bir yil yashab, “Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasi”ning kuch-qudrati, boy sarhadlari, hayot tarzi va siyosiy voqealariga guvoh bo‘lgan Bernye Fransiyaga qaytgach, o‘z taassurotlarini kitob holida nashr ettirdi.

Bernye kitobining inglizcha tarjimasini o‘qigan ingliz adibi Jon Drayden undan ilhomlanib, o‘zining “Avrangzeb” fojiasini yozgan va shu tarzda Sharq mavzusi ingliz klassitsizm adabiyotida ham o‘zining munosib o‘rnini egallagan. Dramaturgning “Avrangzeb” fojiasi Angliya Tiklanish davri dramaturgiyasida muhim burilish yasaydi hamda tomoshabinlarni teatrlarga bo‘lgan qiziqishini qayta jonlantirgan.

“*Avrangzeb*” *dramasida siyosiy implikatsiyasi va motiv*” nomli uchinchi faslda o‘z davrining eng mashhur adabiy tanqidchisi, iste’dodli dramaturg, saroy shoiri Jon Draydenni Boburiylar sulolasining beshinchi bo‘g‘ini Shoh Avrangzeb haqida drama yozib, uni ingliz jamiyatiga havola qilinishi sabablari muhokama etilgan.

Dramaturg klassitsizm yo‘nalishidagi “qahramonlik tragediyasi” san‘at asariga qo‘yiladigan talabni bajargan, ya‘ni “*vaqtini chog‘ qilib ta’lim berish*”ga harakat qilgan⁷. Adibni avvalo, hokimiyat uchun kurash, hokimiyatda vorisiylik muammosi, hokimiyatni zo‘rluk bilan tortib olish, qahramonlik jasorati yoki qahramonona himmat, ezgulik qiziqtirganki, bularsiz, Draydenning fikricha, shaxs tarixda o‘z rolini bajara olmaydi va davlatda barqaror tinchlik o‘rnatilmaydi, mamlakatning gullab-yashnashini ta‘minlashga qurbi yetmaydi. Shu sabab o‘z o‘y-fikrlarini dramaturg asari orqali ingliz xalqiga yetkazib berishga harakat qilgan. Avrangzeb siyosiy ideal timsoli sifatida didaktik xarakterga ega obraz sifatida gavdalantirilgan. Dramada falsafiy qarashlar, klassik va Uyg‘onish davriga mos epik xususiyatlar namoyon bo‘lgan.

⁷ Alssid M., Design of Dryden’s “Aureng-Zebe” // English and Germanic philology, 1965. – P. 452– 469.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**J. Draydenning “Avrangzeb” dramasida stilistik konvergensiylarning kontekstual tahlili**” deb nomlangan. Bob ikki fasldan iborat. “*Dramadagi yadroli va yadrosiz stilistik konvergensiylar tahlili*” nomli birinchi faslda Jon Draydenning “Avrangzeb” dramasida qo‘llanilgan stilistik konvergensiylar tahlilga tortilgan. Mazkur tahlillar M. Riffater, A.P. Skovorotnikov, I.V. Arnold, V.M. Nelkenbaum, S.A. Kuzmenko, G.A. Kopnina, N. Normurodova, F.M. Xajiyeva⁸ kabi olimlarning konsepsiyalari asosida amalga oshirildi.

Konvergensiya xususiyati jihatdan *bir yadroli (однофокусный)* konvergensiya (bunda muayyan bir trop asosiy ma’no anglatuvchilik vazifasini bajaradi) va *yadrosiz (многофокусный)* konvergensiylarga ajratiladi (bu turdagi konvergensiya barcha stilistik vositalar bir xil mavqega ega bo‘lib, dominant trop yoki obraz mavjud emas)⁹.

Shu nazariyadan kelib chiqib, Jon Draydenning “Avrangzeb” dramasida uchragan *bir yadroli* stilistik konvergensiylar tahlil qilindi. Draydenning “Avrangzeb” dramasida ko‘p uchraydigan stilistik vosita *jonlantirish* (personification) hisoblanadi. Matnni tahlil qilganda, jonlantirish rod kategoriyasi bilan bog‘liq bo‘lib, sotsiolingvistik, psixologik hamda madaniy tushunchalarni kitobxonga ta’sirliroq yetkazib berishga ko‘mak bergan.

Jon Draydenning “Avrangzeb” fojiasida ko‘proq abstrakt, ya’ni mavhum tushunchalar (sevgi, taqdir, jasorat, o‘lim, go‘zallik, tun, kun), samo jismlari (quyosh, yulduz, oy, osmon), tabiiy obyektlar (dengiz, daryo) hamda o‘simliklarning shaxslantirilganligi tadqiqot natijasida aniqlandi. Shu bilan birga stilistik konvergensiya jonlantirish tropi boshqa stilistik vositalar: metafora, giperbola, kinoya va ramzlar bilan hamohang kelgan. Dastlab jonlantirish stilistik vositasi atrofida yig‘ilgan boshqa leksik-stilistik vositalarga e’tibor qaratildi:

ARIMANT

*Fortune seems weary grown of Aureng-Zebe,
While to her new-made favorite, Morat,
Her lavish hand is wastefully profuse,
With fame and flowing honors tided¹⁰.*

Tarjima:

ARIMANT

*Omad Avrangzebdan yuz o‘girganga o‘xshar,
Endi yangi qahramon Murodga u kulib boqar.
Sahiy qo‘li taqdirlab uni ortig‘i bilan,
Ham shuhrat, ham ehtiromlar to‘lqiniga cho‘ktirar¹¹.*

⁸ Nomi zikr etilgan olimlarning tadqiqotlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismida keltirilgan.

⁹ Сковородников А.П. Экспрессивные синтаксические конструкции современного русского литературного языка. – Томск, 1981. – С. 204–205.

¹⁰ Drayden J. Aureng-Zebe. Act III, 134-137 Ed. by Frederick M. Link, University of Nebraska Press. – Lincoln, 1971. – P.59

¹¹ Очилова Д. Жон Драйденнинг “Аврагзеб” трагедияси (таржима). – Тошкент: Наврўз нашриёти, 2014. – Б.123


Saroy ayoni Arimant tomonidan aytilgan nutqda jonlantirish tropi yadro bo‘lib kelgan. Ya’ni “*fortune/omad*” abstrakt tushunchasi sahiy va mehribon farishta (ayol) timsolida gavdalantirilmogda. “*Seems weary grown/yuz o‘girganga o‘xshar*” degan gapning qismi taqdirga jon bag‘ishlagan, uni inson singari Avrangzebdan yuz o‘girganini tushunish mumkin. Chunki insonga xos bu jihat omadga ko‘chirilgan. Shuningdek, kontekstda “*fortune/omad*” tushunchasi rod kategoriyasiga ham ega. U ayol siymosini gavdalantiradi. Omad “*her/uning*” – jenskiy roddagi olmoshi bilan keyingi o‘rinlarda tilga olinmogda. Nega aynan ayol? Chunki qadimgi yunon mifologiyasidagi muzalar odatda go‘zal ayollar siymosida gavdalantirilgan, ular san‘at, fan hamda his va idrokka homiylik qilishgan. Yana bir jihati ayollarning fe‘l-atvori erkaklarga nisbatan beqaror va o‘zgaruvchan. Ularning tabiati sharoitga moslashishga moyil. Jon Drayden ayolning bu jihatini metaforik ma’noda analogiya asosida taqdirga bermogda. Chunki keksa qirolning Indamoraga sevgisi sabab u taxtni Avrangzebdan olib, Murodga taqdim qilmogda. Jonlantirish esa, bu o‘rinda, vaziyatga dramatiklik va kinoyaviylik bag‘ishlagan.

Xuddi shu o‘rinda jonlantirish yadrosi atrofida boshqa troplar ham yig‘ilgan. Bu yerda epitet, metafora, ellipsisni ham kuzatish mumkin. “*Her lavish hand/uning sahiy qo‘li*” iborasida “*lavish*” epitet bo‘lib, “omad” tushunchasining boylik, taxt, manfaat, hurmat, hukmronlik ma’nolarida kelishini, omadning “*qo‘llari sahiyligi*” esa yanada ko‘proq omad keltirishini anglatadi. Keyingi misralarda bu kengroq ochib berilgan. Chunki “*taqdir sahiy qo‘li*” bilan Murodga taxtga vorislikni, shon-shuhrat, boylikni in‘om etayotganini tushunish mumkin. Parchaning oxiridagi misrada “*tided*” metaforasi ham diqqatga sazovor. “*To tide*” o‘zbek tiliga “*to‘lqiniga cho‘ktirar*” deb tarjima qilingan. “*To‘lqin*” konsepti odatda ijobiy ma’noda qo‘llanilib, *yuqoriga ko‘tarilish* ma’nosida ifodalangan. Misralarda bu tushuncha ham Murodning bir zumda podsholikka ega bo‘lishi, unga baxt kulib boqqanini ko‘rsatadi.

Keyingi qatorda ham metafora davom etib, jumlaning oxirida to‘ldiruvchi (*him/Morat-u/Murod*) – tushirib qoldirilgan. Bu sintaktik stilistik vosita *ellipsis* bo‘lib, misrada bo‘g‘inlar sonini simmetrik saqlash hamda qofiyani hosil qilish uchun undan foydalanilgan. Ya’ni ikkinchi qatordagi yetti bo‘g‘in to‘rtinchi qatorda ham yetti bo‘g‘in bo‘lib takrorlangan.

Dramaning bu qismida hammaning olqishiga sazovor bo‘lgan Avrangzeb to‘satdan zindonga tashlangani, otasiga qarshi chiqqan Murod esa taxt vorisi etib tayinlangani dramaturg tomonidan bayon etilgan.

Bu misralaring implitsit ma’nosi kinoyaviy bo‘lib, keksaygan Shohjahonning xatti-harakatlarini kulgi ostiga oladi. Chunki Indamorani sevib qolgan qirol Murodning yovvoyi tabiatiga ham qaramasdan, taxtga munosib, adolatli o‘g‘lidan, Hindiston taqdiridan ham voz kechishga tayyor edi. Bundan taqdirning “Ilohiy”ligi podshohning qo‘lidaligiga ishora sifatida tushunish mumkin. Demak, Jonlantirish (*yadro*) + *epitet (periferiya)* + *metafora (periferiya)* + *ellipsis(periferiya)* formulasi bir yadroli stilistik konvergensiyaning hosil qilgan.



Yadrosiz (многофокусная) stilistik konvergensiya barcha stilistik vositalar bir xil mavqega ega bo‘lib, dominant trop yoki obraz mavjud emas. Bunday konvergensiya matnning bir qismida to‘planib, obrazlilik va ma’noni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Jon Draydenning “Avrangzeb” dramasi stilistik vositalarning ko‘p ishlatilganligini ko‘rish mumkin. Asar muqaddimasida muallif ko‘p yadroli stilistik konvergensiya foydalanib, asar yaratilish davri va tomoshabinga munosabatini obrazli tilda ifodalagan. Prologda turli stilistik vositalar bir necha konseptlarni ifodalagan. Bular *Tafakkur (Wit/Остроумие)*, *Qofiya (Rhyme/Рифма)*, *Ehtiros (Passion/Страсть)*, *Janub va Shimol (South and North/Юг и Север)*, *Apelsin daraxti (Orange tree/Апельсиновое дерево)*, *Teatr (Playhouse/Театр)* kabi tushunchalardir. Bu tushunchalar jonlantirish va metafora orqali obrazlantirilgan. Shuningdek, har bir obraz atrofida yangi periferik mikroobrazlar ham yaratilganki, bular murakkab, ko‘p yadroli stilistik konvergensiyalarga misol bo‘ladi.

Jonlantirish trop sifatida qo‘llanilgan ilk stilistik konvergensiyaning “Avrangzeb” dramasi yozilgan prologda o‘qish mumkin. Ma’lumki, prolog asarning muqaddimasi bo‘lib, u o‘quvchini asar voqeligiga olib kirish, tasvirlanajak voqealarning yuz berish omillari haqida umumiy tasavvur berish, muayyan emotsional-hissiy holat hosil qilish¹² kabi vazifalarni bajaradi. Jon Draydenning “Avrangzeb” dramasi yozilgan prologda ham muallifning badiiy-estetik qarashlari, dramaning o‘tkir syujet poetikasi, falsafiy teranlik hamda boburiylar tarixi haqidagi ba’zi ma’lumotlarning bahstlab tasviri uchraydi. Qirq misradan iborat prologda muallif qisqa va lo‘nda qilib, Tiklanish davri dramaturgiyasiga munosabat bildirgan. Dastlabki besh qatorda dramaturg o‘z ijodini baholagan.

Our author by experience finds it true,
 ‘Tis much more hard to please himself than you;
 And out of no feign'd modesty, this day,
 Damns his laborious trifle of a play;

¹² Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 237.

Not that it's worse than what before he writ¹³.

Muallif kitobxoniga murojaatida ijodidan o'zi qoniqmayotganini bayon etgan. Drama yozish mashaqqatlarini la'natlaydi. "*Laborous trifle*" ("*Mehnat talab etadigan bekorchilik*") oksimoroni ostida muallif drama yozish qonuniyatlarini nazarda tutagan. Chunki odatda yozuvchilik – bekorchilik, jismoniy harakat talab etmaydigan ish sifatida qaraladi.

Keyingi misralarda esa "Avrangzeb" dramasidan oldin yaratilgan dramalarini bir tomonga va bu asarni boshqa tomonga qo'yib, dramadagi o'ziga xoslik yangicha uslubda namoyon bo'lishini aytgan. Muallif yangicha *Tafakkur* (*Wit/Ostroumiye*) bilan asarni taqdim etayotganini ta'kidlagan. Bu o'rinda va undan keyin ham "*Tafakkur*" so'zi metonimiya bo'lib, uning zamirida ijod va badiiy asar nazarda tutilgan. Chunki klassitsizm davri ijodkorlari o'z asarlarida obyektiv reallikni tagma'no, metafora, obrazlar orqali ifoda etishgan.

Prologning oxirgi qismida *Janub* va *Shimol* (*South and North/Yug i Sever*) obrazlari bir-biriga kontekstual antitezada qarama-qarshi qo'yilgan. "*Janub* va *Shimol*" konseptlari metonimik xarakterga ega bo'lib, bu tushunchalar ikki xil talqin qilinadi.

Muallif *Janub* va *Shimol* metonimiyalari ostida *Italiya* va *Angliyani* nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Bu quyidagicha izohlanadi:

All southern vices, Heaven be praised, are here;

But Wit's a luxury you think too dear.

When you to cultivate the plant are loth,

'Tis a shrewd sign 'twas never of your growth:

And Wit in northern climates will not blow,

Except, like orange-trees, 'tis hous'd from snow¹⁴.

"Avrangzeb" dramasi esa 1675-yilda yaratilgan. Shu sabab Drayden "*southern vices*" tushunchasi ostida siyosiy beqarorlikka sabab bo'lgan Respublika boshqaruv tizimini nazarda tutgan bo'lishi mumkin. "*But Wit's a luxury you think too dear*" qatorida esa "Wit" so'zi ostida rimliklarning ijodiy taraqqiyotini nazarda tutgan. Chunki klassitsizmning asosiy tamoyillari qadimgi rimliklar poetikasiga asoslangan edi. Bu o'rinda Drayden, biz qadimgi san'atni emas, siyosatni o'zlashtirdik, chunki so'z san'ati juda qimmat, uni o'rganish oson emas, deya kinoya qiladi. "*When you to cultivate the plant are loth, 'Tis a shrewd sign 'twas never of your growth:*" / "Agar sen o'simlik o'stirishga ixtiyorsiz bo'lsang, unda sen hech qachon ulg'aymaysan" misralari esa yuqoridagi fikrni asoslaydi. Metaforik ma'noda yozuvchi agar sen *Wit/Aql, Zakovat, Ma'naviyatni taraqqiy toptirishni istamasang, unda sen rivojlanmaysan* deya ta'kidlaydi.

Keyingi misralarda esa Drayden "And Wit in northern climates will not blow, Except, like orange-trees, 'tis hous'd from snow." Shimol metonimiyasi ostida Angliyani nazarda tutib, ma'naviyat Angliyada rivojlanmaydi, deb aytadi. Shundan so'ng "Except/...dan tashqari" so'zi misrada keskin burilish yasaydi. So'zma-so'z tarjima qilinganda, "*Qorlardan himoya qilinadigan apelsin daraxtiga*

¹³ Drayden J. Aureng-Zebe. Ed. by Frederick M. Link, University of Nebraska Press. – Lincoln, 1971. – P. 14

¹⁴ Drayden J. Aureng-Zebe. Ed. by Frederick M. Link, University of Nebraska Press. – Lincoln, 1971. – P 14-15.

o'xshagan, (...) dan tashqari" misrasida ellipsis qo'llanilgan bo'lib, unda Apelsin daraxti obrazi ostida Ingliz qirolı Karl II (Charles II)ning sevimli aktrisasi va sevgilisi (favoritka) Eleonor Gvin (Eleanor (Nell) Gwyn/Gwynne; (1650-1687)ni gavdalandiradi. Bu ayol asli keli kelib chiqishi quyi tabaqadan bo'lib, teatrdagi xushchaqchaq va jozibali apelsin sotuvchisi bo'lgan. Taniqli teatr rahbari uning iste'dodini payqab, unga aktyorlik san'atini o'rgatgan va teatr tomoshalarining birida Karl II uni yoqtirib qolib, o'ziga xushtor qilib olgan. "*Apelsin qiz/An orange-girl/Apelsinovaya devusha*" ikki noqonuniy o'g'il tug'ib bergan. Draydenning bu o'xshatishida hamma aktyor va aktrisalar ham, (bu yerda teatr nazarda tutilgan) xuddi "apelsin daraxti" – Eleonor Gvin kabi Angliyada o'smaydi, ya'ni teatr taraqqiy etmaydi, degan ma'noni anglatadi. Chunki hamma ham Gvin kabi Qirol himoyasiga olingan emas kinoyasi satirik mohiyat kasb etadi.

"*Asardagi stilistik konvergentsiyalarning lingvopragmatik xususiyatlari*" nomli ikkinchi faslida S.A. Kuzmenko nazariyasiga tayanib, stilistik konvergentsiyalarning bir necha pragmatik funksiyalar¹⁵i tasniflandi:

- 1) *tasviriy (muayyan joy yoki obyektни tasvirlovchi);*
- 2) *xarakterlovchi (personaj yoki subyektни tasvirlovchi);*
- 3) *emotsional (his-tuyg'u, kayfiyatни ifoda etuvchi);*
- 4) *munosabatlarni izohlovchi (baholovchi pragmatik xususiyatli stilistik konvergentsiya);*
- 5) *dolzarblikni ko'rsatib beruvchi pragmatik xususiyatli (matnda dolzarb qism yoki qismlarini ajratib ko'rsatuvchi).*

Misol tariqasida *munosabatlarni izohlovchi, baholovchi pragmatik xususiyatli stilistik konvergentsiya* ijobiy – baholovchi va salbiy – baholovchi funksiyali stilistik konvergentsiya turlarga bo'linib, (muhim ma'lumotlarni ajratib ko'rsatuvchi) so'zlovchining biror narsa va kishiga nisbatan negativ yoki pozitiv munosabatini bildirishi mumkin. Matnga stilistik konvergentsiya yordamida fikrni emotsionallik va ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi¹⁶. Jon Draydenning "Avrangzeb" fojiasida Yevropa tomoshabini uchun yangi va shu bilan birga namuna bo'lishga arziydigan sharqona iffati, or-nomus, ota-o'g'il o'rtasidagi munosabat, ayol kishining yoriga sadoqati kabi munosabatlar ko'tarinki ruhda pafos bilan ifodalagan.

ARIMANT.

Not knowing his design, at court she stayed,
Till by command *close pris'ner* she was made
Since when,
Her chains with Roman constancy she bore,

¹⁵ Кузьменко С.А. Лингвопрагматические свойства конвергенции стилистических средств: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ставропольский Государственный университет, 2006. – С.13-17. //Cheloveknauka.com. Available at: <https://cheloveknauka.com/lingvopragmaticheskie-svoystva-konvergentsii-stilisticheskikh-sredstv> [Accessed 25 Sep. 2022]

¹⁶ Кузьменко С.А. Лингвопрагматические свойства конвергенции стилистических средств: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ставропольский Государственный университет, 2006. //Cheloveknauka.com. Available at: <https://cheloveknauka.com/lingvopragmaticheskie-svoystva-konvergentsii-stilisticheskikh-sredstv> [Accessed 25 Sep. 2022]

*But that, perhaps, an Indian wife's is more*¹⁷.

Tarjima:

ARIMANT

Yorining koridan bexabar bo'lib,

Saroyda bamisoli asira tushib,
